



**МАКТАБГАЧА YOSH BOLALARGA CHET TILINI
O'RGATISHDA O'YIN METODLARINING O'RNI**

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

ADCHTI,Nemis tili nazariyasi va amaliyoti Kafedrasi o'qituvchisi

Mohiragina@gmail.com

Mirzag'ulomova Rayxona Ravshanjon qizi

*ADCHTI,Ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi,Tarjimashunoslik fakulteti
talabasi*

rayhonamirzagulomova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rganishda o'yin metodlarining ahamiyatini va samaradorligini tahlil qiladi. O'yinlar bolalarning qiziqishini oshirish, til ko'nikmalarini rivojlantirish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish orqali eng ilmiy o'qitish metodlaridan biri sifatida qaraladi. Bu maqolada o'yin orqali til o'rganishning asosiy afzalliklari, turli o'yin turlari va ulardan foydalanish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, chet tili, o'yin metodlari, bolalar, til o'rganish, kommunikativ ko'nikmalar, o'quv jarayoni

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun chet tilini o'rganish jarayoni bog'lanish, tinglash va muloqot qilishni ta'minlaydigan qiziqarli va erkin muhitda o'tishi zarur. O'yin metodlari bu jarayonga muvaffaqiyatli ravishda yordam beradi. O'yinlar yosh bolalar uchun tabiiy, qiziqarli va boshqariladigan muhitlarda o'rganishga yordam beradi. O'yin metodlari — bu bolalarning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishlariga, yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishlariga yordam beruvchi faoliyatlar to'plamidir. O'yinlar ko'pincha o'quv jarayonining mahsulotidir va bola uchun qiziqarli, interaktiv va qiziqarli shakkarda amalga



oshiriladi. Ular eng yaxshi qiziqish va motivatsiya manbai hisoblanadi. 1. Qiziqish va Motivatsiyani Oshirish: O‘yinlar bolalarning diqqatini jalb qiladi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ushbu jarayonga ijobiy munosabatni shakllantiradi. 2. Tillarni O‘zlashtirishni Yengillashtirish: O‘yinlar orqali takrorlash va amaliy tajribalar yordamida yangi so‘zlar va iboralarning yodlanishi osonlashadi. 3. Kommutativ Ko‘nikmalarini Rivojlantirish: O‘yin jarayonida bolalar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi, bu esa ularning til ko‘nikmalarini oshiradi. 4. Kognitiv Rivojlanish: O‘yinlar bolalarning fikrlash, mulohaza qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘yin Turlari va Ularning Qo‘llanilishi. 1. Rol O‘yinlari: Bolalar muayyan vaziyatlarda turli rollarni o‘zlashtirishadi, bu esa ularga qiziqarli holatlarda chet tilida muloqot qilish imkoniyatini beradi. Masalan, “do‘konda” o‘ynash orqali yangi so‘zlar va iboralarni amaliy o‘rganish.

2. Buoy O‘yinlari: Bolalar ma'lum bir topshiriqni bajarish uchun bir-birlari bilan raqobat qiladi. Bu o‘yinlar e’tiborni jalb qilishda va so‘zlarni bir-biriga solishtirishda yordam beradi. 3. Kreativ O‘yinlar: Bolalar tasavvur kuchini qo‘llab-quvvatlaydigan o‘yinlarda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, rasm chizish, hikoya yozish va bu jarayonda chet tilidagi so‘zlarni ishlatalish. 4. Didaktik O‘yinlar: Ushbu o‘yinlar bolalarga ma'lum bir ko‘nikma yoki haqiqiy vaziyatlarni simulatsiya qilish orqali til o‘rganishga yordam beradi. Misol uchun, rasmli kartalar yordamida so‘zlarni o‘rganish. O‘qituvchilar va Ota-onalar uchun Tavsiyalar Samimiy Muhit Yarating: O‘qituvchilar bolalarda xavfsizlik hissini oshirish uchun do‘stona va samimiy muhit yaratishi lozim. Mo‘ljalni Tanlang: O‘yinlarni tanlashda bolalar yoshini va rivojlanish darajasini hisobga olish muhimdir. Rag‘batlantirish: Bolalarni muvaffaqiyatlari uchun rag‘batlantirish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishi zarur. Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisolanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda oilada, jamiyatda, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda darsda amaliy



o'rganish,egallash mumkin.Bugungi globallashuv davrida chet tilini erta yoshdan o'rganish nihoyatda muhim bo'lib bormoqda.Ayniqsa,maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rganishga qiziqish kuchli bo'ladi va ular yangi tilni o'ranishda tabiiy qobilyatiga ega bo'ldilar.Asrlar osha minglab pedagoglar taklif etgan qoidalar va qarashlar didaktik ta'limiy prinsiplar maqomida umumlashtirildi va ilmiy asoslandi.O'qitish tajribasidan kelib chiqadigan va turli davrlar sinovidan muaffaqiyatli o'tgan didaktik prinsiplar tizmasi yaratildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy mativatsiyani yaratish usuli o'yin hisoblanadi . Chet tili mashg'ulotlarini o'tkazishning o'yin shakli til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi .O'yin faoliyatidagi bolalarning o'z imkoniyatlariga ishonch ortadi va chet tilida nutq uchun turtki bo'ladi.Chet tilini o'qitish o'yin faoliyati ta'lim faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'qilishda quyidagi öyinlarni tavsiya qilishimiz mumkin.

1.Rolli o'yinlar 2. Raqobatlashib o'yinlar.

3. Musiqaviy o'yinlar. 4. Ijodiy o'yinlar.

Rolli oyin-bog'cha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatidir.Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib,ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar.Shu boisdan o'yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlardan ijtimoiy muhitvoqealari,oilaviy turmush hodisalari,shaxslararo munosabatlarni umumlashtirilgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.Bolalar kattalarning turmush tarzi,his-tuyg'u,o'zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini,o'ziga va o'zgalarga,atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqealik tarzida ijro etishi uchun turli o'yinchoqlardan,shuningdek,ularning vasifasini o'tovchi narsalardan ham foydalaniлади.Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki,ijtimoiy va maishiy



voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdanidan emas,balki turmush tajribasining orttishi,tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi,mohiyati va mazmuni jihatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri bolada o'z xatti-harakatlarini kattalar bilan solishtirish,undan nusxa olish,aynan unga o'xshatish tuyg'usining mavjudligidir.Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashki,ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori,yurish-turishining ham ob'ekti,ham sub'ekti hisoblanadi Bolaning ongida uni qurshab turgan voqealik to'g'risidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharotlar tadqiq qilgan N.M Aksarning ta'kidlashicha,o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi,buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

A)tassurotlar tarkib topishi

B)Har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoyiligi;

V) Bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi.Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

D.B. Elkonin o 'z tadqiqotida rolli o'yining syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yining mazmunini tashkil qiladi.A.P. Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ayishiga qarab, jinsiy tofovutlaiga binoan kengayib boradi:

a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;



b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo‘lib, ulaming hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o‘yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi:

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o‘yinni guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi, natijada awal rollar taqsimlanadi, o‘yining qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o‘yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar). Eng sodda psbcik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta ro‘l o‘ynaydi. Bog‘cha yosh davrida harakatning o‘sishida o‘yining ta’siri haqida gap borganda, awalo, shuni aytish kerakki, birinchidan, o‘yinni tashkil qilishning o‘ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ikkinchidan, o‘yin bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’ekt aynan o‘yin payti emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. Uchinchidan, o‘yining keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlami vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati www.ziyouz.com kutubxonasi xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o‘yinlarda ko‘proq so‘zلامi eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig‘ilgan ma’lumotlami tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi:

a) o‘yinda bola tomonidan ma’lum rol tanlash va ijro etish jarayoni bir talay axborotlami eslab qolishni talab qiladi;

b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo‘ladi va oson amalga oshadi. o‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda o‘z xulqini



boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V. Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil bog'cha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktab yoshidagi bolalaida o'z xulqini o'zi boshqarish konikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida oldindagiga qaiaganda yuqoriqoq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z hulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi, deyish mumkin. Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki, narsalami yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarining moddiy shaklidan birdaniga ulaming xayoliy ko'rinishiga o'tishida uning uchun tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tovchi narsalaming u aksariyatidan o'yinda bevosita ob'ekt sifatida foydalanadi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlami aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'Uq o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilami qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ko'rinishidagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi. Psixolog J. Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan



bolada tarakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihatni namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi. Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'ularini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'iladi boradi, bular boshqa narsalaming tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi. Lug'at o'yinlari: Ingliz tilida yangi so'zlarni o'rgatish uchun lug'at o'yinlari samarali hisoblanadi. Ushbu o'yinlar orqali bolalar yangi so'zlarni osongina o'rganadi va eslab qoladi. "Memory Game" yoki "Matching Pairs". Bu o'yinlarda o'quvchilar turli kartochkalardagi so'zlar va ularning tasvirlarini yoki tarjimalarini moslashtiradilar. Masalan, "dog" so'zini uning rasmi bilan yoki tarjimasi bilan moslash orqali yodlaydilar. Natijalar: Lug'at o'yinlari orqali bolalar yangi so'zlarni osongina eslab qoladilar va ularni tez-tez qayta ishlatsishga undaydi. Natijada o'quvchilar lug'at boyligini kengaytiradilar va yangi so'zlarni faol ravishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interaktiv o'yinlar: Masalan, "Simon Says" yoki "Memory Game" kabi o'yinlar bolalarning e'tiborini va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. Simon Says" o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi bolalarga "Simon says: Touch your nose" kabi ko'rsatmalar beradi va bolalar harakatlar



orqali so‘zlarni anglashadi va yodlaydilar. Natijalar: Interaktiv o‘yinlar orqali bolalar tinglash va harakat qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni rivojlantiradilar. “Simon Says” o‘yini orqali ular o‘zlari eshitgan so‘zlarni tanib olishni va tezkor reaksiya qilishni o‘rganadilar. Bu o‘yin e’tiborni jamlash va tushunganini amaliyotda qo‘llashni kuchaytiradi .3. O‘yinlarning til qobiliyatlariga ta’siri: Tinglash: Tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun hikoya aytish o‘yinlari foydali. Bu o‘yinlar bolalarning diqqatini jamlashga yordam beradi va ularda tinglab tushunish ko`nikmasini oshirishda asosiy vazifani bajaradi. Gapirish: Dialog va munozaraga asoslangan o‘yinlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ochiq ifodalashga yordam beradi va ularda tanqidiy fikrlash ko`nikmasini oshirishga yordam beradi. Chet til metodikasi ilmida o‘quvchining ichki kechinmalari (emotsiyasi) va ichki turkisi (motivatsiyasi)ni ro‘yobga chiqarish muhim ekanligi nazariy asoslab berilgan. Oqibatda chet til o‘rganish motivatsiyasi oshadi, o ‘quv jarayoni tolaqonli mazmuni kasb etadi. Shularning barchasi chet til dasturida rivojlantiruvchi maqsadning o ‘rin egallashiga sabab bo‘ldi.o‘quv dasturining uqtirish xaqida, chet til o ‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlari tilni amaliy egallash chog‘ida uyg‘unlashgan holda yuzaga chiqadi, deb bejiz ta’kidlanmagan.O ‘quvchilaming o ‘quv faoliyatida ko‘nikm a va malakalarning hosil bo‘lish darajasiga ko‘ra shaxsning ijtimoiy faolligi aniqlanadi. Ta’limshunoslik ilmida o‘quv ko‘nikma va malakalarining to‘rtta toifasi tasnif etiladi. Ular tashkiliy, aqliy, axborot va muloqot o ‘quv ko‘nikma va malakalari deb atalishi mumkin. Multfilmlar. Bolalar til o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi. Musiqaviy o‘yin an'anaviy o‘yinlardan farq qiladi. Masalan sheriklar tanlovi bilan raqsga tushadigan o‘yinlar bo‘lib, bu muloqot qobiliyatlarini o‘zlashtirishga emas balki fonetik jihatlarini yaxshilayabti.Til bolalar ruhiyatida botish uchun bu o‘yin turi yordam beradi.Musiqaviy o‘yin turida-bolalarga ritmik musiqalar qo‘yib berilishi ham mumkin. Bu bolalarga musiqa so‘zlarini ritmga xos



tarzda oson yod olishga yordam beradi. Albatta bu o'yinlarni bolalarning yoshiga, darsning mavzu va maqsadidan kelib chiqib tanlab olamiz. O'yinni har safar darsning boshqa qismlarida tashkillashtirishimiz mumkin. Darsning boshida, o'rtasida yoki so'ngida. Masalan, darsning boshlanishida o'yin o'ynash bolalarni til muhitiga olib kirsa, darsning o'rtasida o'ynalgan o'yin dars jarayoniga yanada jo'shqinlik beradi, bundan tashqari darsning so'ngi daqiqalarida o'ynab olingan bilimlarni mustahkamlashning samarali usulidir. Albatta o'yin yakunida bolalarni rag'batlantirishni unitmaslik kerak. Shunda bolalar yanada qiziqish bilan faol ishtirok etadilar

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O', Yaqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2003.

PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS 2024 Australia, Melbourne

46

2. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1996.

3. Pinter A. Teaching Young language Learners. Oxford university Press, 2015.

4. Agzamova D.B. English teaching methodology. Tashkent.: Barkamol fayz mediya, 2016.